



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 11-yanvar

15-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyat hokimining 2025-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-sonli qarori to‘g‘risida”gi 11-6-0-Q/25-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-son hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 9-yanvardagi 11-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-sonli qarori to‘g‘risida”gi 11-6-0-Q/25-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-sonli qarori bilan:

belgilanishicha, dala chetlari hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yangi tartib joriy etilganligini:

a) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni tashkil qilish bo‘yicha:

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) dala chetlarida hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalarida mahsulot yetishtirish, qishloq xo‘jaligi subyektlariga urug‘ va ko‘chatlar yetkazib berish hamda yetishtirilgan mahsulotlarni eksportga yo‘naltirishni tashkil qilish vazifasi yuklatilganligini;

agentlik yil davomida daromadli ekinlar ekish va ularni eksport uchun meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchi tadbirkorlarning talablarini o‘rganishligini;

Suv xo‘jaligi vazirligi tegishli dala chetlarida suv ta‘minoti mavjudligi va ushbu yerlarga ekin ekilishi irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilmasligi yuzasidan,

Agrosanoatni rivojlantirish agentligi esa tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, meva va uzum navlari yuzasidan xulosalarni Agentlikka taqdim etishligini;

agentlik har yili 1-yanvarga qadar talabni hisobga olgan holda, shuningdek, har bir tuman va mahallaning iqlim sharoitidan, bu yerdagi aholining tajribasidan kelib chiqib, ekin turlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga taklif berishligini;

o'simliklar karantini va himoyasi davlat inspektorlari har bir qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga alohida biriktirilishini;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga dala chetlarini ikkilamchi ijaraga berishni tashkil qilish uchun dala chetlariga doir ma'lumotlar (jumladan, mulkchilik shakli, suv ta'minoti ga oid) Agentlik tomonidan "Agroko'makchi" mobil dasturida keng jamoatchilikka e'lon qilib borilishini;

Agentlik, har yili 15-fevralga qadar har bir konturga urug', ko'chat tarqatadigan va mahsulotni sotib oladigan tadbirkorlarni aniqlab, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga bog'lab berishligini;

b) dala chetlaridan samarali foydalangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha:

ichki fitosanitariya sertifikatini bir yil davomida bepul berishligini;

dala chetlariga ekilgan "in-vitro" usulida yaratilgan mevali payvandtagli ko'chatlarni sotib olish xarajatlarining 50 foizi miqdorida, biroq har bir mevali payvandtagli ko'chatga 25 ming so'mdan oshmagan holda Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasidan belgilangan tartibda subsidiya ajratilishini;

Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasidan mablag'larni tijorat banklarining buyurtma nomalariga asosan Markaziy bankning asosiy stavkasida tijorat banklariga resurs sifatida yo'naltirilishi;

Bunda Agrosanoatni rivojlantirish agentligining tavsiyasiga ko'ra:

qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari dala chetini o'zlashtirish va mahsulot yetishtirish uchun zarur bo'lgan urug', ko'chatlar, mineral o'g'itlar, kimyoviy preparatlar, moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlanishini;

suv bilan ta'minlash uchun nasos va quvurlarni o'rnatish xarajatlarining 50 foizdan ko'p bo'lmagan qismini qarz oluvchining bank kartalariga o'tkazish yo'li bilan 6 oygacha imtiyozli davr bilan 12 oy muddatga yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada kreditlar ajratilishini;

Mazkur resurslar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-344-sonli qaroriga asosan Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga Davlat byudjetidan ajratiladigan ssuda mablag'lari hisobidan yo'naltirilishini;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-apreldagi "Qishloq xo'jaligi korxonalarida dala chetlaridagi yer maydonlarida mahsulot yetishtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-son qaroriga muvofiq:

a) O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A. Xayitov) quritish syexi va sovitkichli omborxonalarini xarid qilishga Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan 50 milliard so‘m mablag‘ ajratishini;

b) ushbu mablag‘lar Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan:

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga 36 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oy muddatga yillik 14 foiz stavkada ajratilishi, bunda kredit summasining 60 foizi bo‘yicha garov ta‘minoti sifatida o‘rnatiladigan quritish syexi va sovitkichli omborxonalar olinishi, 40 foizi bo‘yicha garov ta‘minoti sifatida ularning qaytmaslik xatarini sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta polisi olinishi;

tashabbuskorlarga quritish syexi va sovitkichli omborxonalar o‘rnatib berilgandan so‘ng mahsulot yetkazib beruvchining hisob raqamiga o‘tkazib berish sharti bilan ajratilishi belgilanganligi;

Markaziy bank Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida tijorat banklari tomonidan tashabbuskorlarga kreditlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-apreldagi PQ-121-sonli qarori 6-bandida belgilangan talablar asosida Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali ajratib borish choralarini ko‘rishi;

bunda mazkur kreditlar meva-sabzavot mahsulotlarini quritish va qadoqlashga mo‘ljallangan uskunalar, stellajlar hamda plastik yashiklar xarid qilish uchun ham ajratilishi belgilab qo‘yilganligini;

dala chetlari hamda xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko‘chalariga doir ma‘lumotlarni raqamlashtirish maqsadida bir oy muddatida:

a) qishloq xo‘jaligi vazirligi O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan birgalikda dala chetlariga doir;

suv xo‘jaligi vazirligi kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarga doir;

kadastr agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi bilan birgalikda xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldidagi yer maydonlari, mahallaning ichki ko‘chalariga doir ma‘lumotlarni yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalari chegaralari kesimida xatlovdan o‘tkazib, Geoaxborot tizimiga kiritishi hamda Kadastr va ko‘chmas mulklarni ro‘yxatdan o‘tkazish integratsion axborot tizimidagi (UZKAD) ma‘lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-sonli qarori 5-bandida nazarda tutilayotgan davlat tashkilotlariga taqdim qilinishini ta‘minlashini;

b) agentlik Geoaxborot tizimiga kiritilgan ma‘lumotlarni “e-Fito.uz” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga integratsiya qilishi;

v) kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi dronlardan foydalangan holda xatlovdan o‘tkazish ishlariga ko‘maklashishini;

o‘rnatilgan tartibga muvofiq, dala chetlariga har yili 1-aprelga qadar ekin ekmaganlik va yil davomida mahsulot yetishtirmaganlik holatlari aniqlanganda (fors-major holatlari bundan mustasno):

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga ularning barcha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlari uchun yer solig‘i stavkasi uch karra miqdorida hisoblanishligini;

qishloq xo'jaligini davlat tomonidan jamg'armasidan belgilangan tartibda ajratiladigan kredit resurslari hisobidan moliyalashtirish to'xtatilishligini;

dala chetlarini ikkilamchi ijaraga olgan ijarachilarga Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarigacha miqdorda jarima qo'llanilishini;

Respublika ishchi guruhi va hududiy ishchi guruhlar faoliyati yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish, chora-tadbirlar va tegishli takliflar ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan Agentlik markaziy apparatida 8 ta shtat birligidan iborat boshqarma, Qoraqalpog'iston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda viloyatlar o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmalarida 2 ta shtatdan iborat bo'limlar tashkil qilinishini;

belgilanishicha, mazkur shtat birliklari, istisno tariqasida, 2025-2026-yillar uchun joriy etiladi hamda O'simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan saqlanishini;

qishloq xo'jaligi vazirligi, Agentlik va tijorat banklarining qarzdorlik sababli banklar balansiga olingan issiqxona komplekslari, qayta ishlash syexlari va muzlatkichli omborlardan (keyingi o'rinlarda-objektlar) samarali foydalanish bo'yicha yangi tartibni joriy qilish to'g'risidagi quyidagi takliflariga rozilik berilganligini;

bunda:

Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayeov va Agentlik direktori I.Ergashev ikki hafta muddatda har bir obyektning ishonchli boshqaruvga olishga talabgor bo'lgan kamida uch nafar tajribali tadbirkorlar ro'yxatini shakllantiradi hamda ularni tijorat banklariga doimiy ravishda taqdim qilib borishini;

tijorat banklari tomonidan tajribali (ijobiy kredit tarixi va doimiy pul aylanmasiga ega bo'lgan) tadbirkorlarga obyekt uch yil muddatga ishonchli boshqaruvga berilishi, bunda loyiha doirasida pul tushumlari bo'yicha operatsiyalar to'liq bank orqali amalga oshirilishi belgilanganligini;

obyektlardan kelib tushadigan daromadning 50 foizi tijorat banklariga o'tkazilishi, bunda obyektning qiymati bo'yicha qarzdorlik mos ravishda kamaytirilishini;

bir yil ichida ijobiy faoliyat yuritgan taqdirda, obyektning tajribali tadbirkorlarga 10 yil muddatga bo'lib to'lash sharti bilan sotilishini;

Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayeov, Markaziy bank raisi T.Ishmetov, qishloq xo'jaligi vaziri I.Abduraxmonov hamda Agentlik direktori I.Ergashev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-sonli qarori 11-bandida belgilangan chora-tadbirlarning samarali bajarilishi uchun mas'ul va javobgar etib belgilanganligini;

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-aprelda 258-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida xizmat avtotransport vositalarini birlashtirish me'yorlari izoh qismining to'qqizinchi xatboshisi "Kadastr" so'zlaridan keyin "O'simliklar karantini va himoyasi agentligi"ni so'zlari bilan to'ldirilganligini tumanda ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

"Norin-Sirdaryo" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Rizzayev) dala chetlarida ekilgan qishloq xo'jaligi ekinlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlash uchun mas'ul ekanligi belgilab qo'yilganligini.

Statistika agentligining viloyat boshqarmasi (S.Melixo‘jayev), O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (A.Gafarov) bilan birgalikda 2025-yil 1-martga qadar Statistika agentligining integratsiyalashgan axborot tizimini Agentlikning “Agroko‘makchi” mobil dasturiga viloyat bozorlaridagi kuzatiladigan mahsulotlar narxlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yilishida amaliy yordam ko‘rsatishligini.

O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (A.Gafarov) dala chetlarida qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish, ularni zararli organizmlardan himoya qilishning uyg‘unlashgan, samarali uslublarini joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi hamda har bir hududda seminar va treninglar o‘tkazilishini tashkil qilishni.

ishchi guruhlarining tavsiyasiga asosan, dala chetida yetishtirilgan mahsulotlarni aholiga yetkazib beruvchi tadbirkorlarga har bir tuman (shahar) da dehqon bozorlari, savdo markazlari va transport qatnovi gavjum avtomobil yo‘llari chetlaridan joy ajratib berishni, harakatlanuvchi ko‘chma do‘konlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

viloyat hokimining o‘rinbosari – viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i A.Xakimov, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (N.Kaimov), O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (A.Gafarov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligining viloyat bo‘limi (B.Axmadjanov), Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi respublika agroxizmatlar markazining Namangan viloyati agrohizmatlar markazi rahbari (O.Karimxodjayev), dala chetlaridan samarali foydalanish va qo‘shimcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha Namangan viloyatlaridagi ilg‘or tajribaga ega usta dehqonlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-son qarori 4-ilovasiga muvofiq Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari hududlarida har yili mart-aprel oylarida hamda takroriy ekin ekiladigan iyun-iyul oylarida har haftaning ikki kuni mobaynida ko‘rgazmali seminarlar tashkil qilish;

ko‘rgazmali seminarlar tashkil qilish uchun viloyatdagi ilg‘or tajribaga ega usta dehqonlarning Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari hududlariga yuborilishini tashkil qilish;

Tumanlar hokimliklari, har yili 1-fevralga qadar tegishli yil hosili uchun dala chetlarida ekin ekish ishlarini tashkil etish va yetishtiriladigan mahsulotning prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilinishini ta‘minlashliklarini;

dala chetlari, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi hamda mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilishini tashkil qilishni muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda - viloyat ishchi guruhi) 1-ilovaga muvofiq tarkibda;

dala chetlari, kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko‘p qavatli uylar oldi hamda mahallaning ichki ko‘chalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilishini tashkil qilishni muvofiqlashtirish bo‘yicha tumanlar ishchi guruhlari (keyingi o‘rinlarda - tuman ishchi guruhi) 2-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilishi;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari hamda kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda eksportbop mevali daraxtlar ekish prognoz ko‘rsatkichlari 3, 4-ilovalarga muvofiq;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari hamda kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarni aniqlash mezonlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Quyidagilar.

viloyat ishchi guruhi va tumanlar hokimliklariga quyidagi vazifalar yuklatilganligini;

har bir tuman bo'yicha dala chetlaridagi hamda xonadon va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalaridagi yer maydonlarini o'rganib, aniq o'lchamlarini tasdiqlashi;

tuman (shahar) hokimlari va Kadastr agentligining hududiy bo'limlari tomonidan mulkchilik huquqi aniqlanmagan dala chetlaridan foydalanish huquqini belgilash va davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlarini tashkil qilish;

har bir tuman kesimida dala chetlarida hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalarida ekin ekiladigan maydon va mahsulot turlarini o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar bazasini tegishli yilning 15-fevraliga qadar shakllantirish;

dala chetlarida hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalarida ekish uchun hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos urug' va ko'chatlar tanlab olinishi bo'yicha tavsiyalar berish hamda agrotexnik tadbirlarni subektlar kesimida tashkil qilish;

hosildor urug' va ko'chat navlarining, shuningdek, mineral o'g'it va kimyoviy preparatlarning o'z vaqtida yetkazib berilishini tashkil etish;

yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotuvini tashkil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-sonli qaroriga muvofiq viloyat va tuman ishchi guruhlariga;

dala chetlarini ikkilamchi ijaraga olish istagini bildirgan talabgorlar ro'yxatini (keyingi o'rinlarda - talabgorlar) shakllantirish. Bunda talabgorlar ro'yxatini shakllantirishda kambag'al oilalarning a'zolariga ustuvorlik berilishligini;

dala chetlariga har yili 1-aprelga qadar ekin ekmagani va yil davomida mahsulot yetishtirmagan yerdan foydalanuvchilarga nisbatan dalolatnoma rasmiylashtirib, jarima qo'llash uchun Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi viloyat boshqarmasiga taqdim qilish, shuningdek, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan ajratiladigan kredit resurslari hisobidan moliyalashtirishni to'xtatish yuzasidan tegishli tijorat banklariga murojaat qilishni;

doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan yerlarda joylashgan dala chetlaridan bir yil mobaynida unumli foydalanmaganligi yuzasidan ushbu yerlar birlashtirilgan davlat organlariga taqdimnomalar kiritishni;

dala chetlarining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi va ijarachisi har yili 1-aprelga qadar ushbu yer maydoniga ekin ekmagani yoki ikkilamchi ijaraga bermaganda, dala chetlarini talabgorlarga to'g'ridan-to'g'ri o'n yilgacha muddatga ikkilamchi ijaraga berish haqida dala chetlarining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi va ijarachisiga talabnoma kiritish vakolatlari berilganligi tumanda ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tumanda dala chetlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi hamda mahallaning ichki ko'chalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishini tashkil qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha tuman ishchi guruhi 1-ilovaga muvofiq;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari hamda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarda eksportbop mevali daraxtlar ekish prognoz ko'rsatkichlari 2, 3-ilovalarga muvofiq;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari hamda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarni aniqlash mezonlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ishchi guruhi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi maydonlaridagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-sonli qarori talablar asosida tumanda ish tashkil qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, tuman prokurori (U.Akbarov), tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i (D.Karimov), Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining tuman bo'limi (M.Usmanov), O'simliklar karantini va himoyasi tuman bo'limi (B.Sobitov), Suv yetkazib berish xizmati DM tuman bo'limi (I.Abdullayev), Kadastr agentligining tuman bo'limi (A.Shodmonov), Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tuman kengashi raisi (X.Inomov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligining tuman bo'limi (X.Gulomov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov)lar belgilansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**

Mingbuloq tuman hokimining  
2025-yil 11-yanvardagi  
15-6-81-Q/25-son qaroriga  
1-ilova

Dala chetlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi maydonlarda, aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi hamda mahallaning ichki ko'chalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishini tashkil qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha

**TUMAN ISHCHI GURUHI**

<b>№</b>	<b>F.I.Sh</b>	<b>-</b>	<b>Lavozimi</b>
1	Mansurov Axror Axmadalievich	-	Tuman hokimi, <b>tuman ishchi guruhi rahbari</b>
2	Akbarov Umid Munavvarovich	-	Tuman prokurori, <b>tuman ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari</b>
3	Karimov Dilmurod Abdumalikovich	-	Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i, <b>tuman ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari</b>
4	Anvarov Jaxongir Raxbaralievich	-	Tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i, <b>tuman ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari</b>
5	Lavozimiga ko'ra	-	Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i
6	Abdullaev Ilxomjon Abdumalikovich	-	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM direktori
7	Usmanov Muxammadali Ikromovich	-	Tuman agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i
8	Sobitov Baxtiyor To'chiboy o'g'li	-	Tuman o'simliklar karantini va himoyasi bo'limi boshlig'i
9	Qodirov Olimjon Umaralievich	-	O'zbekiston mahallalar uyushmasining tuman bo'limi boshlig'i
10	Inomov Xabibullo O'ktamovich	-	Fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalari tuman kengashi rahbari
11	Nurmatov Ilyosbek Sobitali o'g'li	-	Tuman kadastrlar palatasi bo'limi boshlig'i
12	G'ulomov Xabibullo Xamidovich	-	Tuman Agrosanoatni rivojlantirish bo'limi boshlig'i
13	Saydullaev Dilshod Nabijonovich	-	Tuman o'simliklar karantini va himoyasi bo'limi prognozlashtirish va monitoring qilish bo'yicha yetakchi mutahassisi, <b>tuman ishchi guruhi kotibi</b>

**Izoh:** Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Mingbuloq tuman hokimining  
2025-yil 11-yanvardagi  
15-6-81-Q/25-son qaroriga  
2-ilova

Mingbuloq tumanida 2025 yilda dala chetlaridagi maydonlarga mevali daraxtlar ekish

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI

T/r	Xududlar nomi	Fermirlar soni	Jami dala chetiga mevali daraxt ekiladigan maydon, (ga)	2025 yilda ko'chatlar ekish		Shundan													
						Olcha		Olxo'ri		Bexi		Uzum		Bodom		Chilon jiyda		Tut daraxti	
						maydon (ga)	ko'chat soni (ming dona)	maydon (ga)	ko'chat soni (ming dona)	maydon (ga)	ko'chat soni (ming dona)	maydon (ga)	ko'chat soni (ming dona)	maydon (ga)	ko'chat soni (ming dona)	maydon (ga)	ko'chat soni (ming dona)	maydon (ga)	ko'chat soni (ming dona)
1	A.Temur	10	4	4	4	0,4	0,3			0,4	0,3	0,9	1,0	1,7	0,9	0,5	0,3	0,4	0,8
2	Gulbog'-1	11	4	4	3	0,4	0,3			0,4	0,3	0,9	1,0	1,6	0,8	0,5	0,3	0,4	0,7
3	Gulbog'-2	6	3	3	3	0,3	0,3			0,3	0,3	0,7	0,8	1,4	0,7	0,4	0,2	0,3	0,6
4	Gulbog'-3	7	3	3	2	0,3	0,2			0,3	0,2	0,6	0,7	1,1	0,6	0,3	0,2	0,2	0,5
5	Istikbol	32	7	7	6	0,6	0,5			0,6	0,5	1,5	1,6	2,8	1,4	0,9	0,4	0,6	1,2
6	Xorazm	15	6	6	5	0,5	0,5			0,6	0,5	1,3	1,4	2,4	1,2	0,7	0,4	0,5	1,1
7	Fargona	7	3	3	2	0,2	0,2			0,3	0,2	0,6	0,6	1,1	0,5	0,3	0,2	0,2	0,5
8	Gigant	25	6	6	5	0,6	0,5			0,6	0,5	1,4	1,5	2,6	1,3	0,8	0,4	0,6	1,1
9	Guliston	16	8	8	6	0,7	0,6			0,7	0,6	1,7	1,8	3,1	1,6	1,0	0,5	0,7	1,4
10	Navoiy	20	4	4	4	0,4	0,3			0,4	0,3	0,9	1,0	1,7	0,9	0,5	0,3	0,4	0,8
11	Namangan	21	5	5	4	0,4	0,4			0,4	0,4	1,0	1,1	1,9	0,9	0,6	0,3	0,4	0,8
		<b>170</b>	<b>54</b>	<b>54</b>	<b>44,4</b>	<b>4,9</b>	<b>4,1</b>			<b>5,0</b>	<b>4,2</b>	<b>11,4</b>	<b>12,5</b>	<b>21,4</b>	<b>10,7</b>	<b>6,6</b>	<b>3,3</b>	<b>4,7</b>	<b>9,6</b>

Mingbuloq tuman hokimining  
2025-yil 11-yanvardagi  
15-6-81-Q/25-son qaroriga  
3-ilova

Mingbuloq tumanida 2025 yilda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarga mevali daraxtlar ekish bo'yicha tezkor  
MA'LUMOT

T/r	Hududlar nomi	Ko'chat ekish, ga	2025 yilda ko'chatlar ekish		shundan													
					tut daraxti		uzum		Bodom daraxti		olcha		olxo'ri		jiyda		boshqalar	
			maydon, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	maydon, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	maydon, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	maydon, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	maydon, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	maydon, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	maydon, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)	maydon, (ga)	ko'chat soni, (ming dona)
1	Mingbuloq	0,8	0,8	0,6			0,1	0,1	0,4	0,2					0,3	0,3		
	<b>Jami:</b>	<b>0,8</b>	<b>0,8</b>	<b>0,6</b>			<b>0,1</b>	<b>0,1</b>	<b>0,4</b>	<b>0,2</b>					<b>0,3</b>	<b>0,3</b>		

Mingbuloq tuman hokimining  
2025-yil 11-yanvardagi  
15-6-81-Q/25-son qaroriga  
4-ilova

**Qishloq xujaligiga muljallangan yer uchastkalarining dala chetlari  
hamda kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlari  
atrofidagi maydonlarni aniqlash  
MEZONLARI**

1. Ekin dalalarining kanallar, sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlari bilan tutashgan joyi yoki mazkur tarmoqlar bilan ekin yeri oʻrtasidagi chegara chizigʻi, shuningdek, qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar va suv fondi yerlari toifasidagi yoʻllar, ariqlar, lotoklar, kanallar, kollektorlar va drenajlarning kartoklari boʻylab ekin yerigacha boʻlgan foydalanilmaydigan sugʻorish imkoniyati mavjud va shoʻrlanmagan yerlar.

2. Ekin dalalarining atroflarida foydalanilmasdan qolib ketgan dala yoʻllari.

3. Kanallar, sugʻorish tarmoqlari va kollektor-drenaj mintaqa maydonlaridan tashqari tarmoqlarining sohil boʻyi foydalanilmayotgan yerlar.